



Principles of transliteration of toponames of macrocities

Tutiyo SAYIDKHOSHIMOVA¹

Uzbekistan State World Languages University

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2025

Received in revised form 5

September 2025

Accepted 10 October 2025

Available online 25 October

2025

Keywords:

toponymy,
transliteration,
macrocity,
phonetic adaptation,
international standards,
onomastics,
linguoculturology.

ABSTRACT

This article explores the principles for transliterating macrocity toponyms, with a focus on preserving their linguistic, phonetic, and cultural features. The study analyzes the application of international standards such as ISO 9 and BGN/PCGN in city-name transliteration and discusses the challenges of adapting these standards to the phonetic system of Uzbek. Special attention is given to balancing national identity with global recognizability. The findings underscore the significance of Uzbek toponymy in international communication and cartography and offer insights into the standardization and harmonization of transliteration practices.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss9/S-pp13-19>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Makroshaharlar tamoyillari

Kalit so'zlar:

toponimika,
transliteratsiya,
makroshahar,
fonetik moslashtirish,
xalqaro standart,
nomshunoslik,
lingvokulturologiya.

toponimlarini transliteratsiya qilish

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada makroshaharlar toponimlarini transliteratsiya qilish masalalari, ularning lingvistik, fonetik va madaniy xususiyatlarini saqlab qolish tamoyillari tahlil qilinadi. Transliteratsiya jarayonida xalqaro standartlar, xususan, ISO 9 va BGN/PCGN tizimlarining qo'llanilishi, shuningdek, o'zbek tilining fonetik tizimiga moslashtirish muammolari ko'rib chiqiladi. Shahar nomlarini boshqa yozuv tizimlariga o'tkazishda semantik aniqlik, milliy o'ziga xoslik va global taniluvchanlikni uyg'unlashtirish muhimligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari o'zbek toponimikasining xalqaro kommunikatsiya va

¹ Trainee teacher, Department of English Language Teaching Methodology and Educational Technologies, Uzbekistan State World Languages University.
E-mail: raygulopaeva@gmail.com

xaritalashdagi o'zni hamda bir xillikni ta'minlash yo'llarini ochib beradi.

Принципы транслитерации топонимов макрорайонов

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

топонимика,
транслитерация,
макрорайон,
фонетическая адаптация,
международные
стандарты,
ономастика,
лингвокультурология.

В статье рассматриваются принципы транслитерации топонимов макрорайонов с учётом их лингвистических, фонетических и культурных особенностей. Анализируется применение международных стандартов (ISO 9, BGN/PCGN) при передаче городских названий в другие системы письма, а также трудности адаптации к фонетической системе узбекского языка. Особое внимание уделено необходимости сохранения национальной самобытности и обеспечения международной узнаваемости топонимов. Результаты исследования позволяют определить роль узбекской топонимики в международной коммуникации и картографии, а также пути унификации правил транслитерации.

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi globalashuv davrida mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarning misli ko'rilmagan darajada kengayishi, xalqlarning rivojlanishga intilishi dunyoning geografik xaritasini ham kundan kunga o'zgartirib bormoqda. Ushbu joy nomlarining turli tillar geografik xaritalarida, diplomatik va boshqa hujjatlarida qanday yozilishi, nutq tovushlari va harflari bir-biridan farq qiladigan tillarga qanday o'zlashtirilishi anchagina muammolarni yuzaga keltiradi. Bu esa, o'z-o'zidan, toponimlarni turli tillarda o'zlashtirilishi xususiyatlarini o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi va har bir til lug'at tarkibining rivojlanishi, orfoepik va orfografik me'yoriy lug'atlarining tuzilishida ham alohida ahamiyatga ega. Shu bois Geografik nomlarni standartlashtirish bo'yicha BMT Konferensiyasida 1967-yil Geografik nomlar bo'yicha BMTda o'tkazilgan ekspertlar guruhining o'z yozuvlarini lotin tiliga o'tkazgan barcha davlatlar uchun yagona, uyg'unlashtirilgan transliteratsiya tizimini qabul qilish bo'yicha murojaati ham qabul qilingan edi. Biroq, shunday bo'lsa-da, haligacha ushbu muammo o'z yechimini topgani yo'q. Mavzuning dolzarbligi shular bilan asoslanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI (LITERATURE REVIEW)

Tadqiqot jarayonida xorijiy tilshunoslardan rus olimlari Superanskaya A.V., Juchkevich V.A., Murzaev E.M., Belenkaya V.D., Leonovich O.A., shuningdek, Smit A.X. kabilarning onomastika va toponimika sohasidagi tadqiqot ishlari o'rganildi. Jumladan, ingliz olimlaridan quyidagilarining ishlaridan foydalanildi: Gerych G. "Transliteration of Cyrillic Alphabets", Smith A.H. "English Place-Names Elements".

Tadqiqot metodikasi. Tadqiqot jarayonida tavsiflash, tasniflash, qiyoslash va taqqoslash, stilistik metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari (Results). Toponim (geografik nom) – grek tilidan olingan bo'lib, "onoma" – nom, "topos" – joy so'zlarini ifodalab, joy nomi degan ma'noni anglatadi. Toponim "alohida geografik joy (aholi punkti, daryo, yer)ning xos nomi".

Toponimlarga o'ziga xos nomlar sifatida yondashgan akademik L. V. Shcherba shunday yozadi: «Nutqda qo'llanilgan o'ziga xos nomlar hech qanday ma'noga ega bo'lmasa ham, ular umumiy otlardan chuqur farq qilsa ham, ularni so'z deb hisoblashimiz kerak; ular so'z bo'lgani uchun ularni lug'atdan chiqarib tashlash uchun hech qanday sabab yo'q. Hamma savol tilda "tegishli nomlarning ma'nosi" nima ekanligini aniqlashdir.

N.V.Podolskayadan tegishli nom (onim) deganda, biz u bilan atalgan obyektни boshqa obyektlardan ajratish uchun xizmat qiluvchi so'z yoki iborani tushunamiz, ya'ni uni individuallashtirish va identifikatsiya qilish.

Tilda joy nomlari leksikologiyaning alohida bo'limi – toponomiyada o'rganiladi. Joy nomlariga qiziqish juda qadim zamonlardan boshlangan bo'lib, qadimiy manbalar, o'rta asr yodgorliklarida ham geografik nomlar qayd etilgan obidalar ko'p uchraydi.

Jumladan, Pomponi Mela birinchi marta eramizning II asrida geografik nomlarni tarixiy-geografik tadqiqot obyekti sifatida qo'llagan. U joy nomlari asosida qadimgi Ispaniyaning janubiy qismidagi Keltlar va Lusitan provinsiyalarining chegaralarini belgilab bergan. Yoki hozirgi O'zbekiston Respublikasi, Afg'oniston va Turkiya sarhadlarini qamrab olgan Movarounnahr va Xuroson nomlari qadimiy manbalarda ko'p tilga olinadi, keyinchalik ushbu hududlar O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo, Kichik Osiyo nomlari bilan yuritila boshlagan.

Toponimlar nomlari asrlar davomida ma'lum miqlar va boshqa hodisalar bilan bog'liq holda talqin qilingan. Ularni tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish XIX asrning birinchi yarmidan boshlangan. Turli asarlarda tasvirlangan voqeliklar muayyan joy, mintaqa yoki suv havzasi bilan bog'liq bo'lgani uchun insonlarga o'zi yashayotgan mintaqa yoki geografik nom qachon, qaysi dialektdan kelganini bilish har doim qiziq bo'lgan. Buni Osiyo, Yevropa, Liviya va Atlantika kabi dastlabki joy nomlari tasdiqlaydi. Shu bois, tilshunoslik, adabiyot, tarix va ayniqsa geografiya fanlarining rivojlanishi bilan nomlarning paydo bo'lishi masalasi ularning talqiniga e'tiborni yanada oshirgan.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

XX asr boshlarida fanning alohida tarmoqlari sifatida bir qancha fanlar shakllanib, ilmiy atama, so'z, iboralarning ma'lum tushuncha, qonuniyat va qoidalarini lug'aviy izohlash tartibga solina boshlandi. Xususan, tabiiy fanlar – geologiya, geografiya, geomorfologiya, biologiya, biogeografiya, tuproqshunoslik, fizika, kimyo va boshqa sohalarda ko'plab yangi atamalarning paydo bo'lishi ushbu ilmiy terminlarni boshqa tillarga, jumladan, o'zbek tilidagi ekvivalentlik ma'nosini izlab topish va mohiyatini aks ettiruvchi izohlarga ehtiyojni ko'paytirdi. Bu kabi ilmiy atamalarning tilshunoslik qonun-qoidalariga muvofiq talqin qilinishi ilmiy terminologiyaning paydo bo'lishiga olib keldi.

Ko'rinadiki, toponimika – joy nomlari, ularning kelib chiqishi, semantik ma'nosi, rivojlanishi, hozirgi holati, imlosi va talaffuzini o'rganuvchi integratsiyalashgan fan bo'lib, u geografiya, tarix va tilshunoslik ma'lumotlaridan foydalangan holda uchta bilim sohasini tutashtiradi.

Aslyatdagi atoqli otlar va joy nomlarini tarjima tilida berish uchun so'zlarning kelib chiqishiga ahamiyat berish kerak. Masalan, rassom va realist Dali ingliz tilida Dalisque, buni o'zbek tilida talaffuz qilish qiyin. Mamlakatlar esa qoidaga amal qilgan holda aholisining kelib chiqishiga ko'ra nomlanadi. Masalan, Shri-Lanka yoki Burkina-Faso toponimlarini nomlash qiyin, chunki bu ikkita mamlakatning qaysi qismidan aholini ko'rsatish qiyinchilik tug'diradi. Gazeta maqolalarida bu mamlakatlarning aholisi Lankiy va Burkiniy sifatida ishlatiladi.

Madaniyat va tillar o'rtasidagi aloqalar ko'p asrlik tarixga ega. Bir tildagi toponimlarni ikkinchi bir tilga o'zlashtirishda tillarning ichki taraqqiyotiga bogliq o'zgarishlar ba'zi hollarda buzib ko'rsatiladi. Ko'p hollarda o'zlashtirilgan toponimlarni asliyatdagi shakli bilan o'zaro taqqoslashda beo'xshov tomonlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Suomi" o'zbek tilida "Finlandiya", China o'zbek tilida Xitoy. G'arbiy Germaniya yeri Pfalz fransuzcha Palatinat, Chad ko'li fransuzcha las Peipou, Buyuk Karl ingliz va fransuz tillarida "Charlemagne" tarzida tarjima qilinadi.

Xuddi shu kabi nemis tilidagi yumshoq H harfli realiyalar rus tilida ushbu tovush bo'lmagani uchun G tarzida talaffuz qilinib, H harfi bilan yozilgan shaklda transliteratsiya qilingan. Masalan, Hamburg-Gamburg, Heyne-Geyne.

Aslida, transliteratsiya qilishda realiyalar til imkoniyatidan maksimal darajada foydalanilishi, imkoniyat yetarli bo'lmagan holatlardagina shu kabi o'zgarishlar bo'lishiga yo'l qo'yilishi mumkin. Biroq ko'pchilik hollarda joy nomlarini tarjima qilayotgan tilning orfoepik me'yorlari asosida berilishi kuzatiladi va bu noto'g'ri o'zlashtirish holatlariga olib keladi. Masalan, China – Kitay - Xitoy, Buxoro – Buxara - Bukhara, Baki – Baku - Boku.

Amerika Qo'shma Shtatlari "dollar"ini, ingliz "funt sterling"ini, nemis "marka"si-yu hind "rupiya"si transliteratsiya qilinmasdan, o'zbek "so'm"i bilan almashtirib qo'yilishi, ingliz boshiga "shlyap"» o'rniga o'zbek "do'ppi"sini, egniga "palto" yoki "plash" o'rniga "to'n" yoki "yaktak" kiygizib qo'yish bilan baravar.

Masalan, Angliyadagi geografik o'rinlarni ifodalovchi Oxfordshire, Middlesex, Cambridge, Amerikadagi Oklahoma, Virginia, yoki Kanadadagi Alberta, Manitoba va hokazo geografik nomlarni ifodalashda ularning oldiga grafik, shtat, provinsiya so'zlarini qo'shib tarjima qilinmasa, bu geografik joy nomlarini ifodalovchi so'zlar o'zbek kitobxoniga tushunarli bo'lmaydi. Tushuntiruvchi, izohlovchi elementlarni ko'shish zarurati muassasalar, firmalar, matbuot organlari nomlarini tarjima qilishda ham talab qilinadi. Chunki ular ham faqatgina muayyan bir hududga tegishli bo'lishi va boshqa xalq vakillari uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin.

Transliteratsiya afzalliklari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklarga ham ega. Uning afzalliklari – joy nomi yozma varianti buzilmaydi, uni tashuvchisi universal, tildan mustaqil identifikatsiyaga ega.

Transliteratsiya qilinayotganda o'zlashtirib olingan til toponim talaffuzini o'z qonunlariga binoan o'zlashtirib oladi. Ayniqsa qadimiy va tarixiy-mifologik joylar nomlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Masalan: Athína – Afina, Xenia – Kseniya, Saint Peterburg – Sankt Peterburg.

Joy nomlarini to'g'ridan-to'g'ri lotincha shaklda ko'chirish ham tajribada yo'q emas. Atoqli otlar va toponimni o'zlashtirib olishda ularning tarjimasi yozma (grafik) shaklda asoslanishi mumkin. Bir tildagi matndan boshqa tildagi matnga toponimlarni o'zlashtirmasdan uning grafik shaklini ko'chirish mumkin. Bu holat bir xil yozuv grafikasidan tillarda umumiy foydalanganda sodir bo'ladi. Lotin grafikasidan foydalanayotgan ko'pgina mamlakatlar bu tajribadan foydalanishadi. G'arbiy Yevropa tillarida biror joy nomi bir tildan ikkinchi tilga ko'chirilsa, uning orfografiyasi o'zgarmaydi. Bu o'quvchi uchun qulay bo'lib, istalgan yozma manbada osongina topilishi mumkin. Masalan, lotin tiliga asoslangan biror tildagi toponim ingliz tilidagi matnda uchrasa, u o'zgartirishsiz holatda bo'ladi. Bunda ingliz alifbosida mavjud bo'lmagan xarflar ham talaffuz qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Quydagi misollarga etibor bering: Hampshire – Gempshir, Hants – Xents, Hampstead – Xempsted, Mahan – Mexen, Bantry – Bantri,

Bangor – Bangor, Banf – Banf, Allan – Allan, Essex – Esseks, Enfield – Enfield, Elliot – Elliot, Coen – Koen, Hendon – Xendon, Betty – Betti, Helston – Xelston, Buckley – Bakli, Humber – Xamber, Bundoran – Bandoran, Huntly – Xantli, Surbiton – Serbiton, Bernard – Bernard, Bermondsey – Bermondsi, Darwin – Darwin, Ford – Ford, Brown – Braun.

A.V. Fedorov realialarni aks ettirishning uch xil yo'lini ko'rsatadi.

1. Transliteratsiya (to'la yoki qisman), reali bo'lib kelgan so'zni bevosita fonetik moslashtirish yoki so'z negiziga o'z tilining qo'shimchalarini qo'shib berish.

2. Predmetni ifodalash uchun tilda real mavjud bo'lgan unsurlardan foydalangan holda yoki morfologik birlashtirish yo'li bilan yangi so'z yoki so'z birlashtirishni hosil qilish.

3. Boshqa tildagi joy nomlarini ifoda etuvchi so'zlarni vazifasi jihatidan o'sha ma'noga yaqin turgan (garchi aynan bo'lmas-da) so'zlar yordamida tarjima qilish.

Asosan, manba harfidagi har bir grafik belgi, xoh u alifbo yoki bo'g'in bo'lsin, maqsad harfdagi tegishli belgi bilan almashtiriladi. Biroq har xil skriptlar ko'pincha turli tovushlarni ifodalagan bo'lsa-da, manba skriptidagi ma'lum bir belgilar yoki belgilar kombinatsiyasi transliteratsiyada faqat bitta harf bilan emas, balki harflar kombinatsiyasi bilan ifodalanadi yoki almashtiriladi: masalan, ikkita harf (digraf), uchta (trigraf) yoki hatto to'rtta (tetragraf). Transliteratsiya turli alifbo va bo'g'inli skriptlar o'rtasida qo'llanilishi mumkin va bunda, qoida tariqasida, ma'lum bir grafik belgi har doim bir xil tovushni ifodalaydi. Uni logografik skriptlarga, masalan, xitoy va yapon kanji belgilariga qat'iy ravishda qo'llash mumkin emas, bu yerda grafik belgi tovushni emas, balki ma'noni bildiradi.

Masalan, yunon tilidan lotincha (roman) yozuv tizimiga transliteratsiyani ko'rib chiqaylik. Yunoncha imloda Yunoniston poytaxtining endonimi - Αθήνα. "θ" harfini lotin digrafi th bilan almashtirilishi natijasida Αθήνα Athína aylanadi. Bu retransliteratsiya deb ataladi. Bunday hollarda, o'quvchi yunon va lotin belgilar o'rtasida aniq yozishmalarni o'rnatadigan transliteratsiya kalitiga ega bo'lishi kerak.

Endi rus kirillidan lotinga transliteratsiyani ko'rib chiqamiz. Masalan, lotin tilida ekvivalenti bo'lmagan kirill alifbosidagi "ch" harfini olaylik. Biroq biz ushbu tovushni ingliz tilida ch, nemis tilida esa - tsch birlashtirish bilan ifodalangan lotincha "c" harfini grafik marker, ya'ni "č" bilan almashtirish orqali yetkazishimiz mumkin. Bu marker (^, ~ va boshqa ko'plab belgilar harfning tepasida, ostida yoki bo'ylab joylashtirilgan) diakritik deb ataladi. Uning asosiy maqsadi asosiy harfning fonetik sifatini, boshqacha aytganda, tovushini o'zgartirishdir. Ular ba'zan diakritiklar omonimlarni yoki Slovakiyada Rovne va Rovné kabi o'xshash nomlarni ajratish uchun ham ishlatiladi.

Transliteratsiya bo'g'inli yozuv tizimlariga ham tegishli. Misol uchun, k-bo'g'inlar uchun yapon katakana belgilari xuddi shunday lotin yozuvda ka, ki, ku, ke, ko bo'g'inlari bilan beriladi. Bo'g'inni alifbo yozuviga transliteratsiya qilish qoidalari ro'yxati transliteratsiya bo'g'ini deyiladi.

Yuqorida keltirilgan transliteratsiyaning umumiy misollari lotin yozuviga transliteratsiyaning o'ziga xos holatini ko'rsatadi va romanizatsiya deb ataladi. Bu tizim Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ham qabul qilindi va romanizatsiyaning yagona prinsipi deb ataldi. Ba'zan romanizatsiya qoidalari tilshunoslik akademiyasi yoki universitet kabi akademik muassasa tomonidan ishlab chiqiladi va o'rnatiladi, lekin joy nomlari bo'yicha muayyan mamlakatdagi milliy joy nomlarini ma'lumotlar bazasiga kiritish uchun romanlashtirilgan nomlar ro'yxatini tayyorlash so'ralishi mumkin.

Transliteratsiya tizimining asosiy kamchiligi shundaki, u “hamma uchun yaxshi, lekin hech kim uchun ideal emas”, chunki kiritilgan diakritik va maxsus harflar ko‘pincha boshqa tillar yozuvida hech qanday ma’noga ega emas. Shu sababli, har bir til uchun transliteratsiya kaliti talab qilinadi.

Transliteratsiya nomni bir skriptdan boshqasiga o‘tkazadi. Transkripsiya, lotincha scribere – “yozmoq” so‘zidan kelib chiqqan holda, toponimning endonimik shaklini bir tildan ikkinchi tilga faqat qabul qiluvchi tilning yozuvidan foydalangan holda, transliteratsiyada bo‘lgani kabi, yozma ravishda ko‘chirishdir. Odatda transkripsiyada qo‘shimcha yoki maxsus harflar, diakritik belgilar yoki boshqa belgilar o‘zgartiriladi. Ehtimol, transkripsiyaning eng katta afzalligi shundaki, chet el nomini talaffuz qilmoqchi bo‘lgan maqsad tilini o‘quvchi o‘qiy oladi. Sarlavha quloqqa g‘alati va o‘quvchining artikulyatsiya tizimiga notanish bo‘lib tuyulsa-da, uni transkripsiyada o‘qish orqali u hech bo‘lmaganda, masalan, transliteratsiya kaliti ko‘rinishida hech qanday tashqi yordamsiz uning og‘zaki shakliga yaqinlasha oladi.

Shunday qilib, geografik nomlarni tillarga asliyatida o‘zlashtirish usullarining ikkinchisi bo‘lgan transkripsiya yozuvda atamaning bir tildan ikkinchi tilga sof fonetik o‘zgarishini ifodalaydi. Qadimda bu usuldan tadqiqotchilar va kashfiyotchilar, shuningdek, mahalliy aholidan eshitgan va o‘rgangan xorijiy nomlarning tovushini saqlab qolishga harakat qilgan sayohatchilar foydalangan. Ular buni nafaqat shaxsiy foydalanish uchun, balki kelajakdagi navigatorlar va sayohatchilar uchun ham, asosan, bu nomlarni doimiy ravishda yozib oladi va nashr etadigan kartograflarning faoliyati tufayli amalga oshira oladilar.

XULOSA (CONCLUSION)

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosalarga kelish mumkin:

- 1) nomlar va geografik nomlar transkripsiya yordamida asliyatda berilishi kerak;
- 2) atlaslar, lug‘atlar va ensiklopediyalar mashhur geografik nomlarni ko‘chirish uchun ishonchli ma’lumotnoma bo‘lib xizmat qilishi mumkin;
- 3) ba’zan tarjimaga (viloyat, shahar, dengiz va hokazo) nom va aniqlanayotgan obyekt o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatish uchun aniqlovchi so‘zlarni qo‘shish kerak bo‘ladi. Ushbu usullar tarjimonga chet tillaridan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida chet el nomlari va unvonlarini o‘tkazishda yaxshiroq navigatsiya qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимикаси. Махсус курс программаси. – Тошкент, 1988.
2. Никонов В.А. Введение в топонимику [Текст]: Изд. 2-е. – М.: Издательство ЛКИ, 2011. – 184 с.
3. Никонов В.А. Славянский топонимический тип// Географические названия [Текст]: – М.: Наука, 1962 г. 100 с.
4. Отажонов А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари. – Тошкент: Фан, 1997. – 129 б.
5. Охунов Н. Жой номлари – тилимиз луғат бойлиги // “Таълим жараёнида сўз бойлигини оширишнинг асосий омиллари” мавзuidaги ўзбек тили доимий анжумани учинчи йиғинининг тезислари.-Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
6. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии / Н.В.Подольская – Москва: Наука, 1978. – 199 с.

7. Пospelов Е.М. Туристу о географических названия / Е.М.Пospelов – Москва: Профиздат, 1988. – 192 с.
8. Прошунин Н.А. Состав и структура топонимов Белгородского региона – Белгород 2017. – 287 с.
9. Рабаданова Л.Н. Годонимы политэтнического города в аспекте переименования / Л.Н.Рабаданова // Вестник Университета Российской академии образования. – 2011. – № 5. – 224 с.
10. Реформатский А.А., Топонимика как лингвистический факт // сборник Топономастика и транскрипция [Текст]: – М: Наука, 1964. – 160 с.
11. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. М.: Междунар. отношения, 1974. – 242 с.
12. Суперанская А.В. Имя через века и страны [Текст]: / А. В. Суперанская. – М.: Наука, 1990. – 192 с.